

*Guliston davlat pedagogika instituti  
pedagogika fakulteti 3-kurs talabasi  
Boyto'rayeva Zarnigor*

*"Bobur dilbar shaxs. Uyg'onish  
davrining tipik hukmdori.  
U mard va tadbirkor odam bo'lgan"*

**Javaharlal Neru**

**Annotatsiya:** *Ushbu maqola buyuk podshoh, mumtoz shoir, mahoratli sarkarda, san'atshunos olim Zahiriddin Muhammad Boburning hayoti va ijodiga bag'ishlanadi.*

**Tayanch so'zlar:** *sultanat, babr, sulola, oltin beshik, sergul daraxt, ko'hinur, imperiya.*

### **KIRISH.**

Zahiriddin Muhammad Bobur Sharq madaniyatida adabiyotida, she'riyatida o'ziga xos o'rinnegallagan o'zbek mumtoz adabiyotining yirik vakili, buyuk shoir, tarixchi, geograf, davlat arbobi, iste'dodli sarkarda, boburiylar sulolasi asoschisi, temuriy shahzoda. Mirzo Bobur birinchi navbatda shoh Boburiylar sulolasi asoschisi Andijon hukmdori Umarshayx Mirzoning o'g'li. U ota tomonidan Amir Temurga to'rtinchaviy bo'lsa, ona tomonidan Chingizzonga o'n ikkinchi avlod sanaladi. Otasining bevaqt vafotidan so'ng 12 yoshida Andijon taxtiga o'tiradi. Volidasi Qutlug'nigorxonimning maslahatlari yordamida sultanatni boshqardi. Yosh bo'lishiga qaramay, dastlab maqsadi bobosi Amir Temur davlatini qayta tiklashdan iborat edi. Temuriylar sultanati hududlarini egallashni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan Muhammad Shayboniyxonga qarshi Samarqand uchun naqt, uch marotaba jang qildi. 1512-yilgi so'ngi jangda afsuski mag'lubiyatga uchrab, Samarqanddan butkul umidini uzdi. Ammo bular uning hukumdarlig yo'lini boshlanishi edi xolos. Ayni shu damda o'zaro ichki nizolar va urushlardan kuchsizlangan Hindistonga qo'shin tortib jang qildi. 1526 - yil 21-aprelda Hindistoni egalladi. Bobur podshoh nomiga Xutba o'qildi, va o'zini shoh deb e'lon qildi. Shu tariqa Hindiston tarixida 3 asr hukumronlik qilgan Boburiylar sulolasiga asos solindi. Bobur Hindiston xalqiga yaxshi munosabatda bo'ldi. Ammo buni ko'ra olmaganlar ham ko'p bo'ldi. Bularga misol Ibrohim Lo'diyning onasi Malika Bayda. U Boburga zahar berdi. Boburning ahvoli ancha og'irlasahdi. Ayni shu damda Boburga suyukli o'g'li Xumoyun Mirzo og'ir betob bo'lib qolganligi haqida xabar keldi. Bobur esa nima qilishini bilmas edi. Vazirlardan biri xazinadagi eng qimmatbahko ko'hinur olmosini Xudo yo'liga in'om qilish orqali shahzodaning tuzalib ketishiga umidvor edi. Tabiblar esa Xumoyuning dardiga davo topa olmas edi. Ammo Mirzo Bobur bunday yo'l tutmadidi. Axiri shoh ota bemor o'g'lining atrofida 3 bora aylanib yaratganga iltijo qilib o'z joni

evaziga shifo tiladi. Tez kunlarda Xumoyun tuzalib, Boburning ahvoli esa og'irlashib bordi. So'ngra 1530- yilda Agrada vafot etdi. Bundan Xulosa shuki Bobur nafaqat ijodkor, davlat arbobi deyish mumkin, balkim u farzandlariga, mehribon ota timsolida ko'rishimiz mumkin.

Ne xush meni xushlari ne begona,  
Ne g'ayr rizo mendin ne janona,  
Har nechaki yaxshiliqdan qilsam afsun,  
Xalq ichra yomonlig' bila men afsona.

Bobur Mirzo qisqa, ammo barakali umr kechirdi. Umrining yarimi sarsonusargardonlikda kechgan bo'lsada. Buyuk asarlari, Tengsiz ruboiylari, go'zal gazallari mana besh asrdirki butun duyoga mashhur va o'z kitobxonlariga ega. Bobur yozgan asarlar haligacha tirik bir qalbni jo'shqin haroratga to'ldirib turadi. Bobur qisqa umr kechirgan bo'lsada, Vataniga bo'lган sog'inchi unga hech ham, halovat bermas edi. Uning hayotini har gal o'qiganimda bir o'zbek maqoli yodimga tushadi. "O'zga yurtda shoh bo'lguncha, o'z yurtingda gado bo'l,, Go'yoki ushbu maqol uning hayotidan olinganday. Boburning inson sifatida o'ziga xos hislatlari ko'p bo'lgan. Samimiylilik, hukumdar sifatidaadolat bilan ish tutganligi, haqsizlik va xiyonatni kechira olmasligi eng yaxshi hislatlaridan edi. Mirzo Bobur sharqona andishaga xos ammo, o'rni kelsa tog'ri so'zni ichida saqlamaydigan inson bo'lgan.

Yoshing'un emush qaro bulutga mohim,  
Gardunu sovurmoqliq erur dil ohim,  
Kirmush qaro tuproqqa quyoshdek shohim,  
Nechun qaro qilmasin falakni ohim.

Amir Temur zamonidan to Bobur zamonigacha hech qaysi sultonlarning hayoti Boburning hayoti kabi xatarli va og'ir sinovlarga boy bo'lмаган. Mirzo Bobur tarixdagি hukumdarlar ichida yagona bosqinchi degan nomni, mehr va insonparvarlikga aylantirgan. O'zi vatangadolikda yashagan bo'lsada, egallagan joylarini obod qilishga intilgan. Uning avlodlari ham keyinchalik Hindistonniadolat bilan boshqarib, xalqni mehrini qozongan. Mirzo Olim Mashrifning "Ansob us-salutin fi favorixi xavoqin" nomli asarida keltirilishicha, Zahiriddin Muhammad Boburning ismini Xo'ja Ubaydilloh Ahror qo'yan. Ism so'zlarining ma'nosи: Zahiriddin so'zining ma'nosи sergul daraxt. Muhammad esa dining tayanchi demakdir. Bobur so'zining ma'nosи esa "babr" ya'ni "yo'lbars" degan ma'nolarni anglatadi. Tarixdagи Qo'qon Xonligi haqida hamma birday ma'lumotga ega. Ammo uning paydo bo'lish tarixini ko'pchilik yaxshi bilmaydi.

"Oltin beshik rivoyati" Oltin beshik Boburni avlodidan bo'lib. Qo'qon xonlarini shajarasi undan boshlanadi. Rivoyatga ko'ra: Mirzo Bobur dushmani Shayboniyxondan qochayotganda rafiqalaridan biri farzand ko'radi. Bobur uni hayotini saqlab qolish maqsadida o'sha yerdagi Bir Daraxtga beshikni boylab tuvagini oltinga to'ldirib o'zi esa dushmani chalg'itish uchun boshqa tarafdan ketadi. Bolani esa o'sha yerdagi bir cho'pon topib olgan ekan. Shundan buyon o'sha yerlar Oltin Beshik deyilar ekan. Nodira begin ham Oltin beshik avlodni sanaladi. Biroq Boburnoma va unga zamondosh bo'lgan ko'plab

tarixchilarni asarlarida bu voqealiga tilga olinmagan. Agarda bunday ma'lumot asaralarda uchraganda Boburni dushmanlari farzandini tirik qo'yagan bo'lar edi. "Siyodat xonadoni shohi Bobur nasli pokiman, xudoyo rahmat ayla barcha ajdodi izomimni" Nodirabegim.

Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2017-yil 2-iyunda Andijon shahriga safari jarayonida "Bog'i Bobur" istirohat bog'iga tashrif buyurgan. Ushbu tashrifdan so'ng Prezidentimiz, ulug' bobokalonimiz Zahiriddin Muhammad Bobur haqida shunday tarif bergan edilar "Har bir hududga borganda o'sha yerning tarixini o'rganish va tiklashga e'tibor qaratmoqdamiz. Bobur Mirzo xalqimizning buyuk farzandi. Adabiyot ilm ma'rifikat nuqtai nazaridan u hamon yashayapti. Bu maskani yanada obod qilib, tarbiya o'chog'iga aylantirish zarur. O'zligimizni anglab, buyuk tariximizni yoshlarga tushuntirsak, ilm ma'rifikatni rivojlantirsak, hech qachon kam bo'lmaymiz" degan edilar. Yaqinda bir chiroyli so'z o'qidim. "Hindistoning 8 ming yillik tarixi bamisoli bir tovus bo'lsa o'sha ko'p ming yillik tarixdagagi Boburiylar sulolasining hukmronlik davri ana shu tovusning gultojidir"

XULOSA: Bobur ikki buyuk sulola tutashgan nuqtada tuyoga keldi. Qisqa, ammo mazmunli umri mobaynida hukumkor sifatida lashkar tortib shohlarga xos mag'lubiyatlarni ham, Ulug'vor zafarlarini nashidalarini ham ko'rgan. Yaqinlar xiyonatidan, tortib, vatan sog'inchigacha boshidan og'ir sinovlarni o'tkazdi. Bobur tuzgan imperiya uch asrdan ko'proq umr ko'rduyu, tarix sahifalarida qoldi. Xalqimizning sevimli farzandi Mirzo Bobur hali - hanuz qalblarimizda mangu va barhayot yashaydi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. www.gazeta.uz "Boburm armoni" Hasan Qudratullayev 2009-yil.
2. "Bobur abadiyati" bobur nomidagi xalqaro jamoat fondi 2018-yil.
3. Azimjonova S, Zahiriddin Muhammad Bobur, Maqolalar to'plami, T., 1995.
4. Axmedov Bobur, Istorikogeograficheskaya literatura Sredney Azii XVI—XVIII vv. (Pismennie pamyatniki), T., 1985.
5. Samoylovich A., Sobraniye stixotvoreniy imperatora Babura, Petrograd, 1917.
6. Stebleva I. V., Semantika gazeley Babura, M., 1982.
7. Yoqubov H., Zahiriddin Muhammad Bobur, T., 1949.
8. Hasanxoja Nisoriy, Muzakkiri ahbob, T., 1993.
9. Hasanov S, Boburning Aruz risolasi, T., 1981.
10. Mashrabov Z., Shokarimov S, Asrlarni bo'ylagan Bobur, T., 1997.
11. Vohidov R., Biz bilgan va bilmagan Bobur, T., 2000.